

**O’QITUVCHI NUTQI MADANIYATLI KURSINING  
MAQSAD VA VAZIFALARI**

**Djabborkulova Mehrangiz**

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali*

*Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi*

*Djabborkulova Mehrangiz G’olibjonovna*

*Kimyo Tashkent International University of Samarkand Branch*

*I styear student of primary educational.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’qituvchi nutqi maqsadi, vazifalari haqida fikrlar dars vaqtidagi nutqi, madaniyati Nutq madaniyati sifatlari haqida aytib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Nutq madaniyati, tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyati, og’zaki va yozma nutq, nutqning aniqligi, nutqning uslublari, nutqning tovushi, nutqning a’zolari, nutqning yo’nalishi, nutqning agogikasi, nutqning situasiyasi

**Abctrakt:** The follaving article contains the purpose of teacher’s speech, the opinions about it’s functions, the speech throughout the lesson, culture, the quality of the culture of speech.

Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz biz gapirayotganimizda talafuzda, so’z shakllaridan foydalanishda, jumlalarini tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak. Gapirayotganimizda nutqimizga e’tibor berishimiz kerak xato qilmasligimiz kerak. Uning uchun ko’p tayyorlanib gapirishimiz o’z ustimizda ishlashimiz kerak. Nutq madaniyati fani tilining hamma sohalari bo’yicha adabiy til normalarini tadqiq qilib boradi. Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo’lib, yetishishi uchun juda ko’p narsalarni bilishi kerak. U o’ziga kerakli bilimni ko’rib, eshitib va o’qib o’rganadi. Eshitib, o’qib o’rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Undan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og’zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o’tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. [Til va nutq 4;bet]

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya’ni nutq sifatida kishilar o’rtasida aloqa, fikrlashish, so’zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko’rinadi. Nutq faoliyati kishilarning bir-birlariga tushunarli bo’lgan til vositasida o’zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga ashadi: og’zaki tarzda va yozma tarzda.

**Yozma nutq:**

Og’zaki nutqdan so’ng yozuv ta’sirida paydo bo’lgan bo’lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo’ysunuvchi grafik shakldagi

nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasidagi bevosita aloqa vositasi amas, balki u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, badiiy nutq, shuningdek, hujjatlar, ommaviy axborot vositalari uchun tuzilgan yozma matnlar kiradi. Yozma nutq savodxonligi har bir kishidan o'z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalariga, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan tarzda ifodalashni talab qiladi. [Yozma nutq savodxonligi va nutq madaniyati asoslari 11;12 betlar]

Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq va ta'sirchan tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning yig'indisi bo'lib, tilda mavjud bo'lgan, uning imkoniyatlaridan kelib chiqadigan xilma-xil ifoda vositalaridan fikr uchun eng ma'qullarini tanlay bilish va shu asosda go'zal nutq tuza olish mahorati hisoblanadi.

Nutqning madaniyligi to'g'riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, ifodaliligi, boyligi, sofligi kabi bir qator kommunikativ sifatlarga asoslanadi. Bu sifatlar nutqiy aloqani ta'minlash bilan birga tinglovchi yoki o'quvchiga nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sirini kuchaytiradi.

### **Nutqning to'g'riliqi:**

Madaniy nutqning adabiy til me'yorlari talaffuz, so'z yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy me'yorlarga qat'iy mosligi nutqning to'g'riliqi hisoblanadi. [Nutq madaniyati sifatlari 18;19 betlar N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev]

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e'tiborga olgan holda mashhur Shveysariya olimi Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatining til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini ta'kidlaydi va tilshunoslikka til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi. Nutq til materiali, unsurlaridan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa shaklidir. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog'liq holda uzoq bo'ladi, nutqning hayoti esa qisqa, xususan og'zaki nutq so'zlangan paytdagina mavjuddir. Nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan hodisa sanaladi. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin. Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so'zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz. So'zlash va yozish orqali ma'lum fikr bayon qilishimiz nutq hisoblanadi. Nutq ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq og'zaki nutq, harflar ketma-ketligi asosida bayon

qilingan nutq esa yozma nutq sanaladi. Yozma nutq yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog’liqdir.

Og’zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo’lakka bo’linmaydigan qismi nutq tovushi deyiladi. Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so’zlarning ma’nolarini farqlashdir. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson a’zolariga nutq a’zolari deyiladi.

**NUTQ A’ZOLARI:** o’pka, tog’aylar, un paychalari, bo’g’iz bo’shlig’I, og’iz bo’shlig’i, burun bo’shlig’i, til, lablar, tishlar.

Til vositasida u yoki bu sharoitda aloqa qilish va turli kommunikativ maqsadni amalgaloshish mumkin. Shunga ko’ra, nutq bir necha xil bo’ladi:

- a)kundalik nutq;
- b)ishchan nutq;
- c)tantanavor nutq;
- d)dialektal nutq;
- e)poetic odobiy so’zlashuv nutqi;
- f)professional nutq;
- g)ommaviy nutq;
- h)so’zlashuv nutqi;
- i)sahnaviy nutq;
- j)badiiy nutq;
- k)folklore nutqi;
- l)obraz nutqi;
- m)muallif nutqi;
- n)personaj nutqi kabilar;

Nutq qanday ko’rinishda bo’lishidan qatiiy nazar o’zining ma’lum xususiyatlariga egadir. Bular quydagilardan iborat:

#### Nutq agogikasi

Bunda o’qiladigan yoki gapiriladigan matnning emosional, intellektual mazmuni, ritmik qurilishi yoki tempi hisobga olinadi.

Har bir nutqda o’zining harakati bo’lib, bunda nutqning ritmik-sintaktik tomonidan shakllanishida paydo bo’luvchi davrning dinamik xususiyati nazarda tutiladi. Nutq harakati uning tempini ham belgilab beradi. Nutqning tempi tez bo’lsa, nutqdagi so’zlarda reduksiya hodisasi yuz beradi. Nutq tempi sekin bo’lsa, so’zlar to’liq shaklda keladi. Nutq ham kichik-kichik bo’laklarga ajraladi. Nutq tildan farqli holda o’z birligiga egadir. Tabiiy qonuniyat asosida nutq oqimida paydo bo’luvchi bo’g’in, so’z, so’z birikmasi va gap nutq birligi sanaladi. Nutq birliklari intonatsiya va pauzalardan to’g’ri foydalana bilish orqaligina ajraladi.

Nutq elementlari ketma-ket joylashtiriladi. Ketma-ket joylashtirilgan nutq elementlari davr nuqtai nazaridan turli davrlilikni ifodalaydi. Bunga nutq yo’nalishi

deb ataladi. Tilning nutqdan farqli tomoni shundaki, til sistemasida bir davrlilik mavjuddir. Turli davrlikni ifodalovchi nutq o’z momentiga egadir. Keyingi fikr mazmuniga ta’sir etishi nuqtai nazaridan paydo bo’ladigan shart-sharoit nutq momenti deyiladi.

### **NUTQ MOMENTI**

ta’sirida nutqiy muomalada amalga oshiriladigan sharoit nutq situasiyasi deyiladi. Ko’pincha, ma’lum nutqiy sferada til uslublarini tipik qo’llash uchun harakat qilinadi. Bunga nutq uslubi deyiladi. Nutq uslubi poetik nutq uslubi, kitobiy nutq uslubi, oddiy so’zlashuv nutq uslubi, so’zlashuv nutq uslubi kabilarga ajratiladi. To’liq nutq uslubi hech bir kamchilikka ega bo’lmagan nutq haqida nutq madaniyati bahs etadi.

Aloqa vositasi bo’lgan tilda qonunlashtirilgan orfoepiya, so’z qo’llash va boshqa qoidalarga mos ravishda individual so’zlashuvda eng yaxshi an’analarga amal qilish nutq madaniyati sanaladi. Nutq madaniyatining saviyasi tilning orfoepik, Grammatik, leksik, stilistik normalaridan to’g’ri foydalana bilishdadir.

### **Adabiyotlar:**

1. R.Qo’ng’irov va b. Nutq madaniyati va uslubiyatlar asoslari “O’qituvchi”.1992-yil.
2. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo’ldoshev. Nutq madaniyati va Davlat tilida ish yuritish. 2013-yil.